

YOSHLAR TASHABBUSLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA ULARGA KO‘MAKLASHISH

Soatova Rayxona Sadridдин qizi

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti

Pedagogika yo‘nalishi talabasi

rayhonasoatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning g‘oya va loyihalarini ro‘yobga chiqarishda ko‘mak berishning ijtimoiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, tizimli yondashuvlar va amaliy tavsiyalar orqali yoshlar faolligini oshirish zarurligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, tashabbus, qo‘llab-quvvatlash, ko‘mak, loyihalar, ijtimoiy faollik, davlat dasturlari

Annotation: This article highlights the social significance of supporting youth initiatives and assisting them in implementing their ideas and projects. It emphasizes the need for a systematic approach and offers practical recommendations for increasing youth engagement.

Keywords: Youth, initiative, support, assistance, projects, social activity, government programs

Аннотация: В статье раскрывается социальная значимость поддержки молодежных инициатив и оказания помощи в реализации их идей и проектов. Обоснована необходимость системного подхода и представлены практические рекомендации по повышению активности молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, инициатива, поддержка, помощь, проекты, социальная активность, государственные программы

Mamlakatimizning kelajagi bo‘lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunda ham o‘ziga xos tarzda, zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda, ularning barcha huquq

va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda. Shu bois ham, yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'zni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib boruvchi bu qatlamni doimiy yo'naltirib va qo'llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlarini yo'lida erkin ijtimoiylashuvi va o'zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi. Shu bois, mamlakatimizda eng katta e'tibor mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu vazifa O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-5106-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, shuningdek, ko'plab qaror va yoshlarga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan.

Ayniqsa, bu borada "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning huquqiy mexanizmlarini yaratish sohasidagi yangilik bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ma'lumki, mazkur qonun 4 bob, 33 moddadan iborat bo'lib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan hamda yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish, ularning intellektual, ijodiy va boshqa salohiyatlarini kamol toptirish

¹ O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'RQ-406 qarori

uchun shart-sharoitlar yaratilishini nazarda tutgan. Unda belgilangan normalar yoshlar huquq va erkinliklarini ta'minlangan.

Shuningdek, qonunda yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, yoshlar ijtimoiy xizmatiga oid normalar o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekistonda buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Yosh matematiklar xalqaro olimpiadasi muvaffaqiyatli o'tkazilgan, uning mantiqiy davomi sifatida fizika bo'yicha Ahmad Farg'oniy, kimyo fani bo'yicha Abu Rayhon Beruniy, biologiya bo'yicha Abu Ali ibn Sino, astronomiya bo'yicha Mirzo Ulug'bek nomlaridagi xalqaro fan olimpiadalari tashkil etilishi, iqtidor va iste'dodli yoshlarni qo'llab quvvatlashning yaqqol namunasidir.

Amalda bugun ijob, prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktablarning faoliyati, oltin, kumush medal joriy etilgani, fan olimpiadasi g'oliblari, Zulfiya, "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori" kabi davlat mukofotlarini joriy etilganining tub maqsadi, qonunning hayotiyliigi va ijrosini ta'minlashdir. Qonunning ahamiyatli tomoni yana shundaki, unda yoshlarning tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illatlar ta'siridan himoya qilish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etish maqsadida "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi doirasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tuzilib, yoshlar biznes tashabbuslarini, startup, g'oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorida imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko'rsatish hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirdi.

Har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla, umuman olganda, butun jamiyat bugungi kunda yoshlar ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bilib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilishi, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan

yosh avlodni tarbiyalashi, ularning orzu-maqсадlari, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi zarurdir.

Buyuk nemis faylasufi Gyote shunday degan: “Garchi butun dunyo olg'a harakat qilayotgan bo'lsa ham, yoshlar bu jarayonni har safar yangidan boshlashi kerak”. BMT doirasida va ushbu tashkilotdan tashqarida ham yoshlar huquqlarini ta'minlash masalasi tobora ko'proq muhokama markazida bo'lib kelmoqda va global rivojlanish davrida ushbu masalada bir necha qadam oldinga tashlash taqozo etilmoqda. Yoshlar – keng ma'noda, yosh xususiyatlari va ular bilan bog'liq asosiy faoliyatlar asosida shakllanadigan guruh jamoalarining keng majmui. Torroq sotsiologik ma'noda yoshlar ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, yoshlarning ijtimoiy mavqeining yoshga bog'liq xususiyatlari, jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'rni va vazifalari, o'ziga xos manfaat va qadriyatlari asosida ajralib turadi.

Nemis sotsiologi Karl Mangeymning ta'riflashicha, yoshlar tez o'zgaruvchi, yangi holatga ko'nikish kerak bo'lganida oldingi qatorda turuvchi rezervdir. Dinamik jamiyat ertami kechmi ularni (an'anaviy jamiyatda safarbar etilmaydigan, integratsiya qilinmaydigan, aksincha bostirib yuboriladigan zaxiralarni) faollashtiradi va tashkillashtiradi. N.I.Usinina o'zining “Yoshlar tushunchasi mohiyatining tasnifi” maqolasida quyidagi ta'riflarni keltirgan. Yoshlar asosan o'rta maxsus va oliy ma'lumot olish faoliyatini olib boruvchi, ijtimoiy hayotga tayyorlanuvchi va qadam qo'yuvchi odamlardir”.²

Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash – jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim omil hisoblanadi. Ularning g'oya va loyihalariga ko'mak berish orqali nafaqat yosh avlodning o'ziga ishonchi, balki ularning ijtimoiy faolligi ham ortadi. Davlat va jamoat institutlari tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar, ta'lim, grant va innovatsion dasturlar – yoshlar salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim. Ushbu maqolada ilgari surilgan g'oya va tavsiyalar yoshlarni qo'llab-quvvatlashda tizimli yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.

² Тесленко А. Н. Юногогика интегративное направление научно-педагогического осмысления феномена молодежи // Вестник АПН Казахстана. 2016. № 5. С. 19-28.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907 qarori
2. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ-406 qarori
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592b.
4. Тесленко А. Н. Юногогика интегративное направление научно-педагогического осмысления феномена молодежи // Вестник АПН Казахстана. 2016.№ 5. С. 19-28.
5. Farsaxonova D.R. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasi // Ta’lim, fan va innovatsiya. 2019, – №1.
7. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan “Yoshlar bandligida o‘zini o‘zi boshqarish organlarining roli: Yevropa va Markaziy Osiyodagi misollar”.